Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
<i>Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna</i>	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
<i>Ибрагимова З. И.</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rne	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	



OLIV TA'LIM TALABALARIDA MA'NAVIY- AXLOQIY MADANIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA JADID PEDAGOGIK MEROSINING O'RNI

Raxmatova Dilbar Anvar qizi

Profi University Navoiy filiali o'qituvchisi
Navoiy davlat pedagogika universiteti doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni tahlil etiladi. Jadidchilik harakatining mohiyati va asosiy pedagogik tamoyillari, xususan milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsni erkin fikrlashga undash hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyani ustuvor qo'yish kabi jihatlar ochib beriladi. Muallif xulosasiga ko'ra, jadid pedagogik merosi bugungi kunda talabalarida axloqiy mas'uliyat, milliy o'zlikni anglash va yangilikka intilish fazilatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jadid pedagogik merosi, ma'naviy-axloqiy madaniyat, oliy ta'lim, ma'rifat, tarbiya samaradorligi, o'zlikni anglash, milliylik, insonparvarlik, vatanparvarlik, erkin fikrlash.

Abstract: This article analyzes the role of the Jadid pedagogical heritage in increasing the effectiveness of spiritual and moral culture in higher educational institutions. The essence and main pedagogical principles of the Jadid movement are revealed, in particular, the harmony of nationality and universality, practice-oriented education, encouraging the individual to think freely, and prioritizing spiritual and moral education. According to the author's conclusion, the Jadid pedagogical heritage serves as an important source for the formation of moral responsibility, awareness of national identity, and the desire for innovation in students today.

Key words: modern pedagogical heritage, spiritual and moral culture, higher education, enlightenment, educational effectiveness, self-awareness, nationality, humanity, patriotism, free thinking.

Аннотация: В статье анализируется роль педагогического наследия джадидов в повышении эффективности духовно-нравственной культуры в высших учебных заведениях. Раскрываются сущность и основные педагогические принципы джадидского движения, в частности, гармония народности и всеобщности, практико-ориентированное образование, поощрение свободного мышления личности, приоритет духовно-нравственного воспитания. По заключению автора, педагогическое наследие джадидов служит важным источником формирования у современных студентов нравственной ответственности, осознания национальной идентичности, стремления к новаторству.

Ключевые слова: современное педагогическое наследие, духовно-нравственная культура, высшее образование, просвещение, эффективность образования, самосознание, народность, гуманизм, патриотизм, свободомыслие.

KIRISH

Jadid pedagogik merosi – yoshlar tarbiyasi uchun tuganmas manba. Oliy ta'limda undan foydalanish:

- Talabalarda milliy g'urur va ma'naviy mas'uliyatni oshiradi.
- Jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Axloqiy madaniyatni rivojlantirish orqali yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Nazariy jihatdan: Jadid pedagoglari ilm va axloqni bir butun jarayon sifatida talqin qilgan. Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot" degan g'oyasi bugungi kunda ham dolzarb.

Amaliy jihatdan: Talabalarga dars jarayonida jadidlar asarlaridan parchalar, axloqiy hikoyatlar, maqolalar kiritish ularni faollikka undaydi.

Innovatsion uyg'unlik: Jadid metodlari (bahs-munozara, mustaqil fikrlash, savol-javob) bugungi inter-aktiv metodlar bilan uyg'unlashadi.

Jadidchilik harakati va uning ta'limiy-ma'rifiy merosi nafaqat o'tmishga oid tarixiy bosqich, balki bugungi kunda ham ta'lim-tarbiya tizimida bebaho manbaa, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Jadidlar ilgari surgan fikr-mulohazalar – ilm-fan asosida tafakkurni shakllantirish, axloqiy barkamollikka erishish, milliy qadriyatlar bilan insoniyatga xos umumbashariy prinsiplarni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, ular hozirgi oliy ta'lim muassasalarida axloqiy-me'yoriy madaniyatni yuksaltirishda tayanch nuqtasiga aylangan. Bugungi kunda globallashuv va axborot oqimi kuchayib borayotgan bir sharoitda yoshlarning qalbida vatanparvarlik tuyg'usi, axloqiy poklik, ijtimoiy ong va javobgarlik hissini shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarining ilg'or pedagogik qarashlariga murojaat qilish nihoyatda muhimdir. Ularning zamonaviylikka intilgan, yangilanish ruhida kechgan faoliyati har bir shaxsni komil inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan edi. Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan *“Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir.”* degan hikmatli so'zlar jadid ma'rifatchilari uchun nafaqat e'tiqodiy asos, balki ularning butun faoliyati va hayot falsafasining yo'nalishiga aylangan edi. Bu fikr jadidlar tomonidan tarbiya masalasiga naqadar jiddiy, mas'uliyatli va hayotiy zarurat sifatida yondashilganini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur davrda bir tomonda xalqni halokat va tanazzuldan asrab, uni taraqqiyot, ozodlik va saodat sari yetaklashni maqsad qilgan jadidlar harakati, ikkinchi tomonda esa mustamlakachilik siyosati orqali millatni siyosiy qaramlikda ushlab turishga, uning milliy o'zligini yo'qotishga, madaniyati va tilini yemirishga intilgan bosqinchilar o'rtasidagi keskin ziddiyat kuchayib bordi. Bu qarama-qarshilik ayniqsa ta'lim-tarbiya sohasida o'zining ochiq namoyonini topdi. Jadidlar maktablar orqali xalq ongini uyg'otishga, yangi zamon talablari asosida yetuk avlodni tarbiyalashga harakat qilar ekan, mustamlakachilar esa eskicha, bo'ysundirishga xizmat qiluvchi ta'lim tizimini saqlab qolishga urinar, shu orqali Turkiston zaminida siyosiy erksizlikni mustahkamlash va milliy uyg'onish jarayonlarini bostirishga intilar edilar. Jadidchilik harakati o'zbek milliy ma'rifatparvarlik tarixida muhim bosqich bo'lib, uning bosh maqsadi jamiyatni ilm-fan va ta'lim vositasida taraqqiyot sari yetaklash edi. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining ilg'or vakillari tomonidan yaratilgan pedagogik meros, ular tuzgan darsliklar, ta'lim-tarbiya metodlari hamda ushbu merosning zamonaviy ta'lim tizimiga ta'siri atroflicha tahlil qilinadi. Jadidlar milliy ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, yangi uslubdagi maktablarni tashkil etish hamda ilg'or pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishga katta e'tibor qaratdilar. Ular zamonaviy ilm-fan, texnika va madaniyatni o'zlashtirish orqali millatning yuksalishiga erishish mumkin, deb hisoblaganlar. Ushbu ma'rifatparvar zotlar ilmga va ma'naviyatga tayanib, “Ilmdan boshqa najot yo'q” degan hadisi sharifni o'z hayotiy e'tiqodlari sifatida qabul qilganlar.

Jadidlar o'z faoliyatlarida faqatgina nazariy qarashlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy ishlar orqali o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishga intildilar. Ular gazeta va jurnallar chop etib, keng omma orasida savodxonlikni oshirishga harakat qildilar. Shu bilan birga, sahna asarlari orqali ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqib, kishilar tafakkuriga ta'sir ko'rsatishga erishdilar.

Ularning sa'y-harakatlari natijasida jamiyatda yangi avlodni zamonaviy ruhda tarbiyalash tamoyillari shakllandi. Jumladan, ayollar va erkaklar teng huquqliligi, ilm olish erkinligi, zamonaviy fanlarni o'rganish kabi g'oyalar asta-sekin ijtimoiy ongda mustahkam o'rin egallay boshladi. Jadidchilik harakati o'z davrida mavjud bo'lgan siyosiy tobelik, madaniy turg'unlik va ijtimoiy qoloqlikka qarshi mafkuraviy jihatdan qarshilik ko'rsatgan yirik harakat sifatida maydonga chiqdi. Bu harakat millat ongini uyg'otish, xalqni ozod fikrlashga undash va jamiyatda o'zgarishlar qilishni maqsad qilgan edi. Jadidlar milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surish orqali Turkiston aholisini o'z tarixiy ildizlariga qaytarish, milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lishga da'vat etdilar. Ularning faoliyati xalq orasida mustaqil fikr yuritish madaniyatini shakllantirishga, zamon talablariga mos yashash va rivojlanish yo'lini izlashga xizmat qildi.

Jaholat, savodsizlik va turg'unlikka barham berish uchun jadidlar ta'lim sohasini isloh qilishga alohida e'tibor qaratdilar. Ular din va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali komil inson tarbiyalash mumkin deb hisobladilar. Diniy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviyatni, zamonaviy fan va texnika bilan boyitish zarur, degan g'oya ularning asosiy e'tiqodlaridan biri edi.

Jadidchilik harakati tarixiy jarayonda ma'rifatparvarlik va taraqqiyotga xizmat qilgan yirik ijtimoiy-siyosiy va madaniy oqimlardan biri sanaladi. Bu harakat vakillari o'z davrining ilg'or pedagogik qarashlariga asoslanib, xalqni bilimli qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy fan yutuqlarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratganlar. Aynan shu jihatlari bilan jadidlarning pedagogik qarashlari hozirgi ta'lim tizimi uchun o'ziga xos tajriba maktabi hisoblanadi. Jadid pedagoglari ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishga harakat qilganlar. Ular eski usuldagi maktablar o'rniga yangi metodlarga asoslangan dars berish tizimini joriy qilgan, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy fanlar bilan tanishtirish, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida



tarbiyalashga urg'u berganlar. Bugungi kunda ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni qayta ko'rib chiqish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim tizimining rivojlanishida muhim omil bo'la oladi.

Jadidlar xalqning kelajagi ta'lim orqali barpo etilishini chuqur anglab yetganlar. Shuning uchun ular faqatgina maktablar ochish bilan cheklanmay, balki o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar yaratish va pedagogik faoliyatni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shganlar. Ayniqsa, turkiy tillarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, milliy adabiyot va madaniyatning yuksalishiga xizmat qilgan.

Zamonaviy ta'lim jarayoni uchun jadidchilik merosini chuqur o'rganish, undagi ilg'or fikrlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda, bir tomondan, milliy qadriyatlarga tayanilgan holda, ikkinchi tomondan, innovatsion metodlarni tatbiq etish zarur. Jadidlarning pedagogik qarashlari aynan shu jihatlarni uyg'unlashtirganligi bilan dolzarbdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidlar vakillari nafaqat zamonaviy maktablar tashkil etish, balki ta'lim mazmunini boyitish, o'quvchilarda axloqiy, aqliy va ma'naviy tarbiyani shakllantirish borasida ham katta ishlar olib borganlar. Ular tomonidan yozilgan darsliklar o'z mazmuni, uslubiy yondashuvi va yangilikka intilishi bilan ajralib turadi. Ushbu darsliklar orqali jadidlar o'z zamonasining ilg'or pedagogik tajribasini milliy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli tatbiq etganlar.

Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari orqali yosh avlodga axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy tarbiyani shakllantirishni maqsad qilgan. Shuningdek, u "Birinci muallim" va "Ikkinchi muallim" darsliklari orqali bosqichma-bosqich savod o'rgatish metodikasini ishlab chiqqan. Hamza Hakimzoda Niyoziy esa "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi" va "Qiroat kitobi" kabi asarlari orqali o'quvchilarda adabiy nutqni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan yozilgan "Adibi avval" va "Adibi soniy" darsliklarida esa mavzularni takrorlash orqali bilimlarni mustahkamlashga asoslangan yondashuv mavjud. Uning darsliklari o'quvchilar tafakkurini mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Risolari asbobi savod", "Risolari jug'rofiyayi umroniy" va "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" kabi darsliklari zamonaviy fanlarga asoslangan ilk o'quv qo'llanmalar bo'lib, ular orqali yangi usulda savod o'rgatish metodlari joriy etilgan.

Saidzoda tomonidan tuzilgan "Rahnamoi savod" va "Hikmat xazinalari" darsliklari o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda tafakkurni o'stirishga xizmat qiluvchi matnlar berilgan.

Mirzo Xo'qandiy esa "Gulshani Mirzo" va "Gulshani xayol" nomli darsliklar orqali o'quvchilarning estetik didini va nutqiy madaniyatini shakllantirishga harakat qilgan.

Muhammad Sharif Sufizoda Ibrat (Ibrat) "Miftah ul-talim" va "Tarjimai hol" kabi asarlari bilan nafaqat savod o'rgatgan, balki o'quvchilarga dunyo ilm-fani va madaniyati haqida tushuncha berishga intilgan.

Sadriddin Ayniyning "Tahzib us-sibyon" va "Yoshlar tarbiyasi" darsliklari esa axloqiy tarbiya va oila muhitining ta'limdagi ahamiyatini targ'ib etuvchi muhim asarlar hisoblanadi. Saidrasul Aziziy tomonidan yozilgan "Ustozi avval" va "Muallimi soniy" darsliklari o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Ular bosqichma-bosqich murakkablikka asoslangan bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatgan.

Abdullaxo'ja Saidahmadxo'jayev esa "Rahbari soniy" darsligida rasmiy metodikani qo'llagan bo'lib, bu o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynagan.

Shokirjon Rahimiy 1918-yilda Abdurauf Fitrat va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda "Ona tili" darsligini yozgan bo'lib, unda ona tilining grammatik tuzilishi, tinish belgilari kabi muhim tilshunoslik masalalari yoritilgan.

Shuningdek, ko'plab jadid ma'rifatchilari xorijiy ta'lim tajribasini milliy maktablarga joriy etish maqsadida o'quv adabiyotlarini tarjima qilganlar. Masalan, Behbudiy va Munavvarqori Rossiya hamda Turkiya ta'lim tizimidan ilhomlanib, zamonaviy pedagogikaga oid asarlarni milliy tilga tarjima qilganlar. Ibrat esa arab, fors va rus tillaridan ilmiy-adabiy materiallarni tarjima qilib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etgan. Hamza va Avloniy bolalar uchun mos she'r va hikoyalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Umuman olganda, jadidlar yaratgan darsliklar va tarjimalar o'z davrining ilg'or pedagogik yondashuvlari asosida tayyorlangan bo'lib, bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning bu boradagi faoliyati zamonaviy ta'lim islohotlari uchun bebaho tajriba maktabi sanaladi. Jadidchilik harakati o'z zamonasida millatni uyg'otish, jamiyatni o'zgartirish va ilg'or tafakkurli avlodni tarbiyalashni o'z oldiga ustuvor vazifa qilib qo'ygan. Bu harakat vakillari ta'lim-tarbiyani milliy taraqqiyotning asosi deb bilib, maktab tizimini isloh qilish, yangicha metodlarni joriy etish orqali xalq ma'naviyatini yuksaltirishga intildilar. Aynan jadidlarning ilgari surgan pedagogik tamoyillari bugungi zamonaviy ta'lim tizimining ko'plab jihatlari bilan uyg'unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jadid pedagogikasining asosiy g'oyalardan biri – o'quvchini faqat bilim egallovchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy muammolarga tahliliy yondasha oladigan shaxs sifatida shakllantirish edi. Ular an'anaviy yodlashga asoslangan ta'lim usulidan voz kechib, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, savol berish va muammoga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratganlar. Zamonaviy ta'lim tizimi ham aynan shu tamoyilni davom ettirib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga katta e'tibor bermoqda. Jadid maktablarida darslar interaktiv va muloqotga boy bo'lgan. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol munosabatlar, savol-javoblar, bahs-munozaralar ta'lim jarayonining markazida turgan. Jadidchilik harakati ayollar ta'limiga bo'lgan ilg'or munosabati bilan ham ajralib turadi. Ular qizlarning maktablarda o'qish huquqini himoya qilgan va bu yo'lda ijtimoiy qarshiliklarga qaramay, ayollar maktablarini tashkil etganlar. Bugungi ta'lim tizimida ham gender tengligi asosiy prinsiplardan biri bo'lib, ayollar uchun ta'limda teng imkoniyatlar, hatto ayrim imtiyozlar yaratilib, bu boradagi islohotlar davom ettirilmoqda. Bu esa jadidlarning ilgari surgan tamoyillarining mantiqiy davomi sifatida qoraladi.

Jadidlar ta'limda nafaqat fanlarni o'rgatishni, balki insonning axloqiy sifatlarini shakllantirishni ham asosiy vazifa deb bilishgan. Ta'lim jarayoni faqatgina bilim olish emas, balki odob-axloq qoidalarini egallash, insoniy fazilatlarni rivojlantirish vositasi sifatida qaralgan. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining mashhur asari – "Turkiy Guliston yoxud axloq"da nafaqat ilmga intilish, balki odob-axloq qoidalarini o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, Munavvarqori va Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid olimlar yaratgan darsliklarda ezgulik, halollik va bilimga intilish kabi axloqiy fazilatlar asosiy o'rin tutgan. Bugungi kunda ham maktablar dasturlarida axloqiy tarbiya masalalariga alohida e'tibor beriladi; masalan, "Tarbiya" fani bunday yo'nalishdagi ta'lim ishlarining yorqin namunasidir.

Jadid maktablarida tarix va adabiyot fanlariga katta e'tibor qaratilib, o'quvchilarda milliy merosga hurmat va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga ahamiyat berilgan. Ular yoshlarni o'z xalqi va yurtiga sadoqatli, mas'uliyatli bo'lishga targ'ib qilishgan. Shu tamoyil bugungi maktab dasturlarida ham uzluksiz davom ettirilmoqda. Milliy g'ururni rivojlantirish hozirgi ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir va bu bevosita jadidchilik pedagogikasi tamoyillarining davomi hisoblanadi.

Jadid ustozlari o'quvchilarni halol mehnat qilishga, o'z kuchlari va bilimlari asosida maqsadlariga erishishga da'vat qilgan. Ularning ta'lim-tarbiyasi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham yo'naltirilgan bo'lib, maktablarda amaliy mashg'ulotlar keng joriy etilgan. Bu esa yoshlarni mehnatsevarlik va halollikka o'rgatishdagi muhim omil bo'lgan.

Sadriddin Ayniy ta'lim-tarbiyada oilaning o'rni va ahamiyatini o'z asarlarida alohida ta'kidlagan. Farzand tarbiyasi jamiyat va millat kelajagi uchun poydevor hisoblanadi, shuning uchun ota-onalar farzandining har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun mas'uliyatni chuqur anglab, ularga zarur e'tibor berishi lozim.

Jadid olimlari Xoja Muin Xo'qandiy, Is'hoqxon Ibrat, Saidaziz Saidiy kabi shaxslar nafaqat ilmiy, balki diniy-ma'naviy tarbiyani ham ta'lim jarayonida muhim deb bilishgan. Ular o'z darsliklarida hadislar, maqollar va ma'naviy o'gitlarga tayanib, yoshlarni odob-axloq va ezgulik sari yo'naltirganlar. Bugungi kunda ham maktablarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar, tarbiyaviy soatlar, to'garaklar va dunyo dinlari tarixi fanlari orqali o'quvchilarga axloqiy va ma'naviy bilimlar berish amaliyoti davom etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidlar ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirib, jamiyatni yangilash va millatni ma'rifatli, axloqiy jihatdan yetuk shaxslar bilan to'ldirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Ularning ta'limga oid yangiliklari nafaqat ilmiy bilimlar, balki tarbiyaviy qadriyatlarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, bugungi ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Jadidlar yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, bilimga intilish va mustaqil fikrlash tamoyillari asosida tarbiyalashga katta e'tibor qaratganlar. Hozirgi ta'lim islohotlari aynan shu jadidchilik pedagogikasi tamoyillarini davom ettiradi va zamonaviy ta'lim jarayonida ularni yangi bosqichga olib chiqadi. Jadidlar o'z davrining yetuk ziyolilari bo'lib, milliy taraqqiyot va madaniy yuksalishga hissa qo'shish uchun jon kuydirganlar. Ularning fidoiyligi va ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois, jadidlarning yaratgan ilmiy-ma'rifiy merosi milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda hamda zamonaviy ta'lim islohotlari uchun nazariy hamda amaliy yo'nalishlarni belgilab bermoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadidlarning ta'lim sohasidagi islohotlari millat taraqqiyoti va jamiyat yangilanishida, oliya ta'lim talabalari ya'ni bo'lajak mutaxassislarning hayoti hamda faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ularning ilmiy va tarbiyaviy tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayonida ham dolzarb bo'lib, yosh avlodni vatanparvar, axloqiy yetuk va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashda asos bo'ladi. Shu bilan birga, jadidchilik merosi bugungi ta'lim islohotlari uchun mustahkam nazariy va amaliy zamin yaratib, milliy ma'rifat va madaniyatni rivojlantirishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov. O'zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. –T., Ma'naviyat, 2002.
3. Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr
4. Tog'ae. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o'rganish.// "Xalq ta'limi", 1993, 1-son.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.